

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Bugun psixologik savodxonlik hamma uchun zarur. O‘z his-tuyg‘ularini anglaydigan, stressni boshqara oladigan, boshqalarning holatini tushuna oladigan insonlar sog‘lom jamiyatni tashkil qiladi.

Finlandiya, Norvegiya, Kanada kabi mamlakatlarda bolalikdan boshlab ruhiy salomatlik darslari o‘rgatiladi. Bu esa jamiyatdagi jinoyatchilik, zo‘ravonlik va ruhiy kasalliklar kamayishiga olib kelgan.

7-BO‘LIM: XULOSA – PSIXOLOGIK SOG‘LOMLIK – BARQARORLIK ASOSI

Bugungi notinch, axborot bilan to‘yingan dunyoda psixologik barqarorlik eng muhim ustuvorlikka aylangan. Agar inson o‘zini tushunsa, hissiyotlarini nazorat qila olsa, boshqa odamlar bilan sog‘lom munosabat qura olsa – u hayotda barqaror bo‘ladi.

Psixologiya – bu faqat fan emas, bu kuchdir. O‘zini anglash kuchi. Ruhiy mustahkamlik kuchi. Va, eng muhimi, insoniylikni saqlab qolish kuchi.

MADANIYATLARARO TAFOVUTNING AKS ETISHI

Ahmadov Odilbek Alibek o‘g‘li

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Tillar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ahmadovodilbek9@gmail.com

Ilmiy rahbar: Pardayev Sirojiddin Shokir o‘g‘li

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamонавиј давр тараққијоти таъбларига монанд ривожланышда давом этатган миллат ва елатлар орасидаги тағовутларинг якъол намуналари келтирib o‘tiladi va ularning o‘ziga xos izohlari ham beriladi. Xususan, madaniyatlararo munosabat yillar, balki asrlar mobaynida shakllanadigan ijtimoiy hodisadir. Madaniyat esa faqatgina jamiyat bilan hamnafasdir.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo tafovut, Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» romani, Abdulhamid Cho‘lpon «Kecha va kunduz» romani, real hayot namunalari.

Millatlar va madaniyat, biri ikkinchisini to‘ldiruvchi uzviy atamalardir. Hozirda hech bir mamlakat va elatni o‘ziga qarashli bo‘lgan madaniyatsiz tasavvur etish mushkul. Va tabiiyki, har bir millatdagi madaniyatning o‘xshash va farqli jihatlari bo‘lishi mumkin. Biz madaniyatlararo tafovut haqida fikr yuritishdan oldin madaniyat tushunchasining tub mohiyatini anglab yetishimiz zarur. Zero, har bir mamlakatning shakllanishida va taraqqiyotida madaniyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo madaniyat so‘zining asl ma’nosini nima? Qachon paydo bo‘lgan? Bugungi kunda qanday ma’nolarni ifodalash uchun omma orasida keng foydalanimoqda. Bu kabi savollarga javob topmasdan turib, ular o‘rtasidagi farqli jihatlarni ko‘rsatib berish xatolik hisoblanadi. Chunki biz ko‘rib chiqadigan mavzuning nimaga borib

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

taqalishini bilmasdan turib, keltiriladigan namunalarni ham to‘liq anglab yetishimizning imkoniy yo‘q.

Darhaqiqat, hozirgi zamon, taraqqiyotning eng yuqori darajalaridan birini boshidan kechirmoqda. Va bu davrda faqat texnologiyalarning zamonaviysi yaratilibgina qolmasdan, balki mamlakatlar o‘rtasidagi qadim urf-odatlar va qadriyatlar, madaniyatlar ham yangilanib, o‘z qolipidan chiqib bormoqda. Buning natijasida esa davlatlar o‘rtasidagi madaniyat ham tobora farqlanish darajasini orttirib bormoqda. Ya’ni madaniyat ham davr bilan chambarchas bog‘liq tushuncha. Shuningdek, bir millatning madaniyati boshqasinikiga ham o‘z ta’sir kuchini o‘tkazishi mumkin. Buning oqibatida esa zaif madaniyat asta-sekinlik bilan o‘z ta’sir doirasini yo‘qotib boraveradi.

«Madaniyat so‘zi arabcha, madina – «shahar, kent» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos usulidir»⁵⁷. Demakki, bu atama dastlab aynan shaxsning ishtiroki bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan hodisa va jarayonlar uchun foydalanilgan. Ya’ni kishining tashqi muhit doirasida, tabiat va insoniyat bilan o‘rnatadigan munosabatida o‘zini tutadigan xatti-harakatlarini qay yo‘sinda olib borishi madaniyat hisoblangan ekan. Bevosita madaniyatning xulq-atvor bilan aloqador ekanligiga ham shubha yo‘q.

«Madaniyat alohida individning hayot faoliyati, ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradi. Madaniyat – inson faoliyatining ham mahsuli, ham ko‘rsatkichi. Insonning o‘zi ham pirovard natijada madaniyatning mahsulidir. Jamiyatdagi madaniy muhit qanday bo‘lsa, inson ham shunday shakllanadi»⁵⁸. Bu shuni ko‘rsatadiki, madaniyat bir kishi tomonidan emas, balki bir necha kishilar jamoasi orqali shakllanadigan ijtimoiy hodisa. Va bu hodisa rivojlanishi uchun juda katta zamon talab etadi. Shuningdek, hech bir kishi o‘zi tug‘ilib, voyaga yetgan jamiyatning madaniyatidan butunlay chetlashib ketolmaydi. Madaniyat kishiga va jamiyatga xos xususiyatlardan biridir. Kishi madaniyatining shakllanishida oila, qarindoshurug‘ va bevosita do‘stlar, tanishlar, ya’ni ijtimoiy muhit ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Kishi qanday odamlar orasida kamolga yetsa, xuddi shunday madaniyatga ega bo‘ladi. Jamiyatdagi madaniyat esa, albatta, davr bilan bog‘liq. Bunday madaniyat hosil bo‘lishi uchun asrlar kerak. Har bir ijtimoiy madaniyat o‘tmishdagi urf-odatlarini saqlash maqsadida ulardan andoza olib, bugungi kun talab etayotgan muhitga xos xususiyatlar bilan bog‘langan holda shakllanadi. Keyinchalik bu har bir jamiyat aholisi uchun keng targ‘ib etiladi.

Ammo achinarli jihat shundaki, bugun insoniyat o‘rtasida madaniyat tushunchasining ta’sir doirasi va bosimi tobora torayib bormoqda. Kishilar biror bir ish bilan mashg‘ul bo‘lganda tez va oson bajarishni maqsad qilib turli kamchiliklarga yo‘l qo‘yishmoqda; atrof-muhit va tabiat bilan munosabatga bee’tibor bo‘lishgani yetmagandek, bu ish bilan sidqidildan shug‘ullanadigan insonlarga past nazar bilan qarashmoqda; transport vositalaridan

⁵⁷ Q. Nazarov, «Falsafa qomusiy lug‘at», «Sharq» nashriyoti, Toshkent. 2004 – 230 b.

⁵⁸ Mansur Bekmurodov, Nargiza Yusupova, «Madaniyat sotsilogiyasi», «Yangi nashr» nashriyoti, Toshkent. 2010. 8-bet.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

foydalinishda bir-biriga bo‘lgan hurmatsizlik yaqqol namoyon bo‘lib, ortiq katta-kichik degan qarashlarga deyarli hech kim e’tibor bermay qo‘ygan; yaqin do’st-birodarlar o‘rtasidagi muloqot doirasida jargon va argolardan foydalinish oddiy holatga aylanib qolgan va bundan hech kim hayron qolmaydigan davrga ham yetib keldik; kamolot yoshiga yetgan «ayrim» mustaqil fuqarolar ham o‘z kasbiga xiyonat qilib, ishiga qat’iyat bilan yondashmaydi; ota-onalar esa farzand tarbiyasidagi mas’uliyatiga yengil qarashi va buning natijasida farzand voyaga yetganda ularga mehrsiz bo‘lib qolish hodisalari ham avjga chiqqan; o‘smirlar ham shu qatorda zamonaviy axborot vositalaridan ko‘rgan kishilar harakatiga taqlid qilish mobaynida o‘zligini yo‘qotib borishmoqda, vaholanki, ular ko‘rgan kishilar uchun qilgan harakatlari o‘z madaniyatlariga monand va oddiy hol bo‘lishi mumkin, lekin bizdagи o‘smirlarning ayni harakatlarni takrorlashi madaniyatimizga xilofdir. Yuqorida sanab o‘tilgan bir qancha muammoli vaziyatlarning barchasi aynan madaniyatimizga, milliy mintalitetimizga bo‘lgan munosabatimizning sustligidan kelib chiqmoqda. Bu holatlar hozirda kamdan kam sodir bo‘lsada, oldi olinmasa salbiy oqibatlarga olib kelishi, shubhasiz. Va bu hol faqat bizda emas, balki butun dunyo xalqlari o‘rtasida rivojlanib borayotgan muammoli vaziyatlardan hisoblanadi.

Madaniyat – kishi muloqotida va xatti-harakatida namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, millatlar o‘rtasidagi madaniyatlararo tafovut ham bevosita muloqot va voqeа-hodisalarning aks etish jarayonida ko‘zga tashlanadi. Bunga esa har qadamda duch kelish ehtimolimiz yuksak.

Ta’kidlab o‘tishimiz joizki, quyida keltiradigan ilk namunamiz orqali o‘z madaniyatimiz va chet el madaniyati o‘rtasidagi tafovutni farq qilish imkoniyatiga ega bo‘lasiz. Bir kuni, Samarqand shahrining yuzi hisoblangan «Registon» maydonida ajib hodisa yuz berdi. Hammaga ayonki, bu muqaddas joy har kuni chet ellik sayyohlar bilan to‘lib toshadi. Biz guvohi bo‘lgan vaziyat ham aynan chet elliklar xatti-harakatida sodir bo‘ldi. Bir juft ota-onsa ikki yosh bolasini olib bu yerga sayohat qilish maqsadida tashrif buyurishibdi. Farzandlarining biri to‘rt-besh yosh atrofi, ikkinchisi esa ikki-uch yosh atrofida bo‘lgani uchun maxsus aravachada ketyotgan edi. Va ular «Registon» maydonining old qismida esdalik uchun rasm tushish maqsadida kichik farzandlarini ham aravachadan tushirishdi. Birgalikda suratga tushishgach ota-onsa o‘z qiziqishlari ortidan atrofni tomosha qilib, farzandlaridan biroz uzoqlashishdi. Endigina yurishni o‘rgangan bola esa zinadan chiqyotganda bexosdan oyog‘i toyib yuztuban yiqilib tushdi. Qizig‘i shundaki, ota-onsa buni payqashmadni ham. Shu bilan bir qatorda, bola ham dod-voy solish o‘rniga o‘zi joyidan qo‘zg‘alishga harakat qila boshladidi. Va takror zinalardan emaklab chiqar ekan, ota-onasi tepadan unga qarab «Come on! Come on!» deya xitob qilishidan yanada ruhlanib, tepagacha chiqishni o‘z kuchi va irodasi bilan uddaladi.

Endi bir tasavvur qilib ko‘rsak, ayni hodisa bizning jamiyatimiz orasida sodir bo‘lsa, qanday tus olgan bo‘lar edi? Eng avvalo, bizda ikki-uch yashar bola hech qachon qarovsiz qolib ketmaydi. Mabodo, yiqilib tushganda ham ota-onasi, yaqinlari zudlik bilan uni o‘rnidan turg‘izib qo‘yishadi. Agar bu vaziyat hech kimning ko‘zi tushmaydigan xilvat joyda sodir bo‘lsa, yiqilgan bola to kimdir kelib uni o‘rnidan turg‘izib qo‘ymaguncha yerda chinqirib

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

yotaveradi. Turgandan so‘ng ham uni ovutishning o‘zi oson emas. Chunki, u shunga moslashtirilgan.

Bu birgina vaziyatning ikki millat madaniyati o‘rtasidagi ikki xil ko‘rinishi, xolos. Va bu voqeanning yakuniy xulosasi ham ikki madaniyat uchun oddiy hodisa, hech bir hayron qoladigan jihatni mavjud emas. Ya’ni chet elda ota-onalar o‘z farzandlarini emin-erkin, o‘z kuchiga ishongan va irodali bo‘lishlari uchun o‘zlarini farzand tarbiyasida beparvodek qilib ko‘rsatishadi. Va bola ham bu muhitga sekin-sekin moslashib, o‘zi uchun o‘zi harakat qiladigan bo‘lib boradi. Bizning madaniyatda esa, aksincha, bola oyoqqa turib, o‘zligini anglamagunga qadar uni yolg‘iz tashlab qo‘yish – xato. Sababi bizning xalqimiz tarixdan ma’lumki, «bolajon xalq». Ya’ni bizning jamiyatimizdagi munosabatlarda keksa kishilarining bosimi baribir o‘z ta’sirini ko‘rsatib turadi. Bizdagi tarbiya natijasida, bola ulg‘aygach yaqin kishilariga mehr-muhabbatli va oqibatli bo‘lib yetishadi. Aynan oilaviy qadriyatlar orqali bizning madaniyatimiz boshqalarga nisbatan ustunlik qiladi.

Har bir mamlakatning o‘ziga xos madaniyati unda voyaga yetib, o‘sha muhit ta’sirida yashagan shoir va yozuvchilarning ijodida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ya’ni ular biror bir asar yaratishda o‘zi ichida yashagan jamoaviy madaniyat muhitidan chetlashib ketolmay aynan o‘shani yoritib berishga harakat qilishadi. Natijada esa, biz o‘sha xalqning qanday madaniyat egasi ekanligini aynan yozilgan asarlar orqali ham payqashimiz mumkin. Xususan, qalami o‘tkir va haqiqatgo‘y yozuvchilarimizdan hisoblangan Abdulla Qodiriy ijodiga doir “Mehrobdan chayon” romanini oladigan bo‘lsak, bunda hozirgi kundagi madaniyatimizning bevosita o‘tmishdan shakllanib kelganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ushbu romandan olingan quyidagi parchaga e’tiborimizni qaratsak:

« – Balli Ra’no, ana jinnilik! – dedi maxdum, – atlas ko‘ylak senga hayf, senga bo‘zdan boshqasi, albatta hayf!

Ra’no o‘rnidan turdi, dadasidan uyalib loyliq qo‘llarini orqasig‘a yashirdi.

– Uyat emasmi, yuv qo‘lingni yuv! Ukalaringni bola desam, sen ulardan ham oshib tushasan!

Ra’no yugurib ariqqa ketdi, Nigor oyim o‘lturgan joyidan «Ra’noning aqli tushsin» deb kulib qo‘ydi. Solih maxdum hanuz Ra’nodan koyib kelar edi:

– Ishing bo‘lmasa kitob o‘qi, husnixat ol, sen kulolning qizi emassanki...»⁵⁹.

Ushbu parchadan o‘rin olgan ajib xarakterli qahramon Solih maxdum bir asr avvalgi ba’zi bir otalarning umumlashma obrazi hisoblanadi. Uni qizining loy o‘ynayotgani emas, balki atlas ko‘ylakda shu ish bilan shug‘ullanayotgani jig‘ibiyron qiladi. Solih maxdum nazdida qimmatbaho buyumlarning barchasi asrab-avaylanishi kerak, zero ularga osonlik bilan yetishib bo‘lmaydi. Shuning uchun qadriga yetib foydalanishni lozim deb biladi. Xususan, o‘tmishda atlas ko‘ylakni olishga har kimning ham qurbi yetmaganligini nazardan chetga chiqarmaslik kerak. Yozuvchi o‘sha davrdagi ijtimoiy jarayonlarga taalluqli har bir jihatni qahramonlar

⁵⁹ Абдулла Кодирий, «Мехробдан чайон», «Адабийот ва санъат» нашрийоти, Тошкент: 1994. 2-бет.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

o‘rtasidagi muloqot orasiga mahorat bilan singdirib yuboradi. Bundan tashqari, aynan shu yerda diqqat qaratishimiz kerak bo‘lgan yana bir tomon mavjudki, kasb otadan bolaga meros qolishi haqidagi aqida ham bu yerda kiritilib o‘tilgan. Ya’ni bugungi kunda ham uchrab turgan ota kasbini egallash haqidagi qarashlar o‘sha davrlarda ham bo‘lganligi muhim ma’lumotlardan biridir. Solih maxdumning e’tirofiga ko‘ra, ziyoli oilaning farzandi, albatta, yozish va o‘qish bilan shug‘ullanishi darkor. Solih maxdumning o‘zi bolalarga dars beruvchi ustoz bo‘lganligi tufayli qizining ham shu yo‘ldan ketishini istaydi. Ammo qizining buning o‘rniga loy o‘ynab o‘tirgani uning noroziligiga sabab bo‘ladi. Va bola loy o‘ynashi uchun kulol farzandi bo‘lishi kerak, degan mulohazasi uning naqadar fikrlash doirasing past ekanligidan dalolat beradi. Bu ham o‘sha davrning madaniy muhitidan bir parcha, xolos. Solih maxdumning ham bunday fikrlashiga aynan tashqi muhiddagi ijtimoiy madaniyat o‘z ta’sirini ko‘rsatgan va u ayni shunday jarayonda o‘sib-ulg‘aygan.

Shuningdek, ma’rifatparvar ijodkor Cho‘lpon qalamiga mansub «Kecha va kunduz» romanidan olingan quyidagi parchaga nazar tashlaylik:

- «– Shoshma, Fitna, «yo‘q», dema, mayli, bora qolsin... Qachon keladi?
 - Indinga erta bilan yo kechqurun.
 - Eshon oyimning ra’ylariga qarasin.
- So‘fi o‘rnidan turdi. Kartdan tushib, kavshini kiyarkan:
- Ovozim bor, deb ashulaga zo‘r bermasin, – dedi, – Nomahramlarga ovozini eshitdirsa, rozi emasman.»⁶⁰.

Yuqorida keltirilgan parchada ko‘rishimiz mumkinki, hali voyaga yetib ulgurmagan qizning gardaniga otasi tomonidan juda kattalarga monand bo‘lgan vazifalar yuklatiladi. Ya’ni qiz o‘z ovozini boshqalarga eshitdirmasligi kerak. Agar eshitdirsa, otasi undan voz kechishini bildirib o‘tadi. Ammo qiz hammaga ham nasib bo‘lavermaydigan g‘ayritabiyy ovoz sohibasi edi. Va u tengqurlari orasida o‘zini taroziga solmasdan qo‘sinq kuylagani ham tabiiy hodisadir. Zebi hali bola va otasi uqtirgan gaplarni jiddiy qabul qilishi uchun, albatta, aqli va farosati yetmaydi. Ammo otasi qizidagi ovozni iste’dod deb baholamasdan, borini ham yo‘q qilishga harakat qiladi. Qizining odamlar oldida qo‘sinq kuylashi uning uchun nomus edi. Va bu ham aynan o‘sha davr madaniyatiga doir bo‘lgan bir namuna. Ya’ni u davrda hech bir ota o‘zi qizini uyidan tashqarida baralla qo‘sinq kuylashiga izn bermagan. Ham Razzoq so‘fining eshonlar bilan munosabati bo‘lganligini ham hisobga olsak, bir tomondan uning qiziga qo‘ygan talablari o‘zi uchun haqiqatga yaqin edi. Har bir yozuvchi o‘z asarini yo‘qdan bor qilib emas, balki aynan borini yanada boyitib tasvirlashga, insonlarni fikrlashga undash uchun yozadi. Bu roman ham aynan kishilarni o‘z farzandlariga yanada diqqat-e’tiborli bo‘lishlarini anglatish uchun xizmat qilgan. Shuni ham inobatga olishimiz kerakki, bu parcha orqali madaniyatga davrning qay darajada ta’sir ko‘rsatishini ham ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Biz madaniyatlararo tafovutga

⁶⁰ Чулпон, «Кеча ва кундуз», «Шарқ», Тошкент: 2000 – 19-бет.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

e’tiborimizni qaratdik, biroq ayni millatning madaniyati ham zamon o‘zgargani sayin turlanib ketaveradi. Xususan, Zebi obraziga biriktirilgan xarakterlar bugungi kundagi ba’zi qizlar uchun tamoman begona. Bunga ham davrni sabab qilib olishimiz darkor.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o‘tishimiz joizki, madaniyat har bir mustaqil shaxs, balki mamlakatning yuzi hisoblanadi. Va bu tushuncha bir kishi tomonidan o‘zgartirilib boriladigan jarayon ham emasligini hisobga olsak, barchamiz o‘z tarixiy an’analaramizni yo‘qotmagan holatda madaniyatimizni ham sof asrab qolishimiz kerak. Bugun bizning kishilar bilan muloqotimiz va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatimiz erta kelajak avlodning o‘zlashtiradigan madaniyatiga poydevor bo‘ladi. Bu esa bizga mas’uliyat yuklashi lozim va e’tiborsizlik o‘zimizga qilgan yomonligimiz bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Q. Nazarov, «Falsafa qomusiy lug‘at», «Sharq» nashriyoti, T.: 2004 – 230 b.
2. Mansur Bekmurodov, Nargiza Yusupova, «Madaniyat sotsilogiyasi», «Yangi nashr» nashriyoti, Toshkent.: 2010 – 144 b.
3. Abdulla Kodiriy, «Мехробдан чайон», «Адабийот ва санъат» нашрийоти, Тошкент: 1994 – 149 б.
4. Чулпон, «Кеча ва кундуз», «Шарқ», Ташкент: 2000 – 287 б.
5. Pardayev S. Sh. Madaniyat tili etnomadaniy tafakkur ifodasining shakli sifatida (lingvo-pragmatik tahlil): filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 2024 – 15 b

TALABA YOSHLARNING IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH DAVR TALABI

G’ulomova Rayhona O ‘tkir qizi

Nizomiy nomidagi Milliy pedagogika universiteti 2- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy kompetentlik uning mazmun, mohiyati. Yoshlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning muhim jihatlari va ijtimoiy kompetentlikka qo ‘yilgan davr talablari yoritilgan.

Kalit so ‘zlar: ijtimoiy kompetentlik, kompetensiya, kasbiy faoliyat, shaxsiy qobiliyat, intellektual salohiyat, ma’naviy kamolot, kasbiy fazilatlar.

Аннотация: В данной статье социальная компетентность является ее содержанием, сущностью. Выделены важность развития социальной компетентности у молодежи и периоды социальной компетентности.